

TALABALARNING ELEKTROTEXNIKA FANIDAN KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Hamdamova Nozima Mukimova
Falsafa fanlari doktori(PhD), dotsent

Hamidov Ruslan Asliddinovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Bu maqolada elektrotexnika fanini o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetentlik, mustaqil fikrlash va yaratuvchanlik qobiliyatlarini amaliy topshiriqlar orqali rivojlantirish metodlari va vositalari tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar: Texnologiya, ta’lim, kompetensiya, Texnologiya darsiklari, elektrotexnika darsliklari, kasbiy kompetentlik

Abstract:

In the process of teaching electrical engineering in this article professional competence of students, positive thinking and varativeness methods and tools for the development of orgali on practical tasks of the nobility analyzed.

Keywords: Technologiya, education, competence, technology textbooks, electrotechnical textbooks, professional competence

Kirish

Bo‘lajak o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini innovasion yondashuv asosida rivojlantirish to‘g‘risidagi yuqoridagi fikrlarni tahlil qilish quyidagi asosiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi: •birinchidan, kasbiy kompetensiya o‘qituvchilarning innovasion va o‘quv faoliyati bo‘lib, pedagogik faoliyat sifatining ko‘rsatkichidir; •ikkinchidan, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish nafaqat yakuniy, balki o‘qituvchilar va talabalarning o‘quv jarayonida innovasion yondashuv asosida o‘zgarishi jarayonidir; •uchinchidan, kasbiy kompetensiyaning rivojlanishi o‘qituvchining tafakkurini shakllantirish jarayoniga ta’sir qiladi. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayoniga yuqori intellektual texnologiyalar, ilm-fanning eng ilg‘or yutuqlarini tatbiq etish, ta’limning ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirishga kadrlar



tayyorlash tizimini rivojlantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Ta'lim va tarbiya masalasi barcha davrlarda eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi vazifalardan biri bo'lib kelgan. Chunki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan yuqori malakali, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq. Hozirgi kunning talabi faqat ma'lum bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki predmetni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv-bilish faoliyatiga innovatsion yondashuv asosida talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivoj toptirishdan ham iboratdir. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi xisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi predmetning mazmuniga qarab talabalarda malaka va kompetensiyalarni rivoj toptirish kerakligini bilishi muhimdir. Kasbiy ta'lim umumiy ta'limdan o'zining ta'lim maqsadi, o'rgatish maqsadi, o'zlarining dasturlari va dastur mazmunining tanlanishi, o'qitishda amaliy faoliyat bilan bog'lanish (ustaxonalarda kengash, korxonalarda ishlash va o'qitish usullari) va boshqalar bilan farq qiladi. Kasbiy ta'limda kasbiy fanlar dasturini ishlab chiqishda kasbiy tavsifnoma talablaridan kelib chiqadi.

Umumta'lim va kasbiy ta'lim jarayonlari asosida bir-biriga o'xshash bo'lsada, chunki ko'p xollarda bir xil didaktik prinsiplar, metodik usullar qo'llaniladi, kasbiy ta'limda nazariy va amaliy o'qitish jixatlari bilan tubdan ajraladi. Chunki bu yerda ta'lim jarayoni ko'pincha ishlab chiqarish bilan birgalikda olib boriladi, u yerda ular o'rganiladi, ishlab chiqariladi, faoliyat ko'rsatiladi. O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti I.A.Karimov "Agar talabalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar" degan fikrlari mamlakatimiz ta'lim tizimida ishlayotgan pedagoglar va mutaxassislar oldiga mas'uliyatli vazifalarni yuklagan. Bugungi kunda butun dunyo ta'lim tizimida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Chunki, aynan mustaqil faoliyat ta'lim oluvchilarda mustaqil fikr, ijodkorlik, va kompetentlik ko'nikmalarni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyev 2019-yil 8-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida asosiy vazifalar belgilab berildi. Ta'limga kompetentlik va kompetensiyaviy yondashuv tushunchalari kirib keldi va ommalashmoqda. Kompetensiya, kompetentlik zamonaviy tadqiqotlar asosiy yo'nalishlarining markaziy muammosiga aylanib ulgurdi, deyish mumkin. Ilmiy pedagogik,



psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlik ta'limda ko'p qismli, barcha fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqin va izohlari tarkibiga ko'ra va ma'no, mantiq mundariyasi jihatidan turli-tuman. Terminning mohiyati "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor", "o'lchov" kabi tushunchalar asosida tavsiflanmoqda. Umumiy qilib aytganda, "kompetentlik – aniq bir kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganlik xususiyatidir".

Ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirish ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri ekanligi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 3- moddasida belgilab qo'yilgan. Shunga muvofiq, bo'lajak mutaxassislariga kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar berish bilan birga ularni kasb-hunarga yo'naltirishda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xalqqa xizmat qilish, tabiat va insonga mehrshafqatli, muruvvatli, sahovatli bo'lish, milliy va kasbiy an'analar, diniy e'tiqod, odamlarning shaxsiy fikrlari va his-tuyg'ularini hurmat qilishni o'rgatishdan iborat. Zero, bo'lajak kadrlarni bunday kasbiy kompetensiyalar va shaxsiy sifatlar uyg'unligi asosida tarbiyalab borish o'quvchini to'g'ri va ongli ravishda kasbhunarga yo'naltirishda ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Talabalarni kasbiy kompetentligini va mustaqil fikrlash qobiliyatini kengaytirishda, ta'lim texnologiyasini muntazam ravishda rivojlantirish dolzarb pedagogik masalalar qatoriga kiradi. Shuning uchun ham, hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabaning kasbiy kompetentlik, mustaqil fikrlash qobiliyatlari va o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika fani oldida o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Texnologiya darsliklaridan
2. Elektotexnika darsliklari
3. Elektiron resuslar.
4. N.M.Hamdama S.I.Baxtiyorova Sh.I. Bahronova "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar"
5. Hamdamova Nozima Mukimovna Baxtiyorova Sobiraxon Ixtiyor qizi «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal. -2023.- T. 1.

